“SUDXO‘RNING O‘LIMI” ASARIDAGI ANTROPONIMLAR TAHLILI

Odinayeva Mohinur
Buxoro davlat universiteti Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti
m.odinayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur axborotda Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida qo‘llangan antroponimlar tahlil etilgan. Bunda antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari hamda uslubiy o‘ziga xosliklariga alohida e’tibor qaratilgan Ayrim antroponimlarning etimologiyasi haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются антропонимы, использованные в повести «Смерть ростовщика» Садриддина Айни. В тексте статьи дано информацию об этимологии некоторых антропонимов, уделяя особое внимание лексико-семантическим и стилистическим особенностям антропонимов.

Annotation: This article analyzes the anthroponyms used in the story "Death of the usurer" by Sadriddin Aini. The text of the article provides information about the etymology of some anthroponyms, paying special attention to the lexical-semantic and stylistic features of anthroponyms.

Kalit so‘zlar: Sadriddin Ayniy, “Sudxo‘rning o‘limi”, qissa, antroponim, leksik-semantik, uslub, uslubiyat etimologiya.

Ключевые слова: Садриддин Айний, «Смерть ростовщика», повесть, антропоним, лексико-семантический, стиль, стилистика, этимология.

Keywords: Sadriddin Ainy, "Death of the usurer", story, anthroponym, lexical-semantic, style, stylistics, etymology.

“Sudxo‘rning o‘limi” asari o‘iga xos onomastik xususiyatlarga ega. Jumladan, unda turli toponimlar, antroponimlar, gidronimlar va boshqa turdagi atoqli otlar qo‘llangan. Nomshunoslikda biror bir tildagi atoqli otlarning jamiki ko‘rinishlari majmuyi “onomastik ko‘lam” deb yuritiladi. Ma’lum tilning onomastik ko‘lami va adadi uning sinxronik, ya’ni zamonaviy holatidan kelib chiqib baholanadi. Har qanday tildagi atoqli otlar tizimini, uning umumiy majmuyini ham baholash mumkin. Bizningcha, onomastik ko‘lam alohida olingan biror asar misolida ham belgilanishi mumkin.

Tahlillar shundan darak beradiki, “Sudxo‘rning o‘limi” asarida 60 dan ortiq atoqli ot mavjud. Ulardan 28 tasi antroponimlar, ya’ni kishi nomlari, 32 tasi toponimlar, ya’ni joy nomlari. O‘z navbatida bu nomlar ham yana mayda guruhlarga bo‘linadi.

Onomastika keng qamrovli tushuncha ekanligi haqida yuqorida ta'kidlagan edik. "Sudxo'rning o'limi" asarida ham deyarli atoqli otlarga tegishli bo'lgan barcha turdagi nomlar uchraydi. Biz bu axborotda, asosan, antroponimlar, toponimlar haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

"Sudxo'rning o'limi" qissasida antroponimlar, ya'ni kishi nomlarining o'zi onomastik tizim bo'lib, u yana tizimchalarga bo'linadi. Asarda qo'llangan jami 28 ta antroponim ismlar (masalan, *Lekin To'ramurodni Hamrohrafiq o'ldirgan deb gap tarqatdilar* [33-b.]; ota ismlari (otchestvo) (masalan, *Shodmon Yusuf o'g'li kim?- deb so'radi* [41-b.]; laqablar (masalan, *Bu ziyofatdagi mehmonlarning ulug'i Qori Ishkamba* [40-b.] yoki *Men Rahimi Qandni umrimda ikki marta iljaygan holda ko'rganman* [9-b.].

Asardagi antroponimlar asar qahramonlarining kim ekanligi haqida ma'lumotga beradigan ishonchli dalil bo'lgan deyish mumkin. Aslida, ismlar bir shaxsni boshqasidan farqlash uchun yuzaga kelgan bo'lib, ular qadim-qadim zamonlardan inson uchun kishilarni bir-biridan farqlash vositasi vazifasini bajargan

"Sudxo'rning o'limi" asarida yozuvchi tomonidan qo'llanilgan ismlar ham yuqorida qayd etilgan vazifani ado etgish uchun ishlatilgan.

Ismlarni ota nomi (otchestvo)lari bilan qo'llanilishni rasmiyatchilik ma'nosini beradi va bunday atash faqat ish yuzasidan vujudga keladi. Jumladan, "*Shodmon Yusuf o'g'li kim?- deb so'radi"*. Ushbu keltirilgan misolda ham Shodmon Yusuf o'g'li deb ish yuzasidan murojaat qilingan.

Turkiy tillarning barchasida juda ko'p sonli laqab nomlar mavjud bo'lib, ularning materiallari yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Laqablar (diniy talablardan qat'iy nazar) tabiiy kundalik ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan. Chunki o'tmishda hozirgidek familiyalar, ota ismlari bo'lmagan, shu sababli bir xil ism egasi bo'lib qolgan otdosh shaxslarni o'zaro farqlashda laqablar juda qo'l kelgan, Shuningdek laqablar ba'zi oilalarda aytilishi man qilingan ismlar o'rnini bosishi lozim bo'lganligi uchun ham yaratilgan. Qadimiy tabu va evfimistik an'analarga ko'ra oilada kelin o'z erining, qaynota va qaynonasining, qayinsingil va qayinlarining, erining boshqa qarindoshlarining nomini tilga olmagan. Ularda o'zi ijod qilgan maxsus laqab nom bilan murojaat etgan. Xuddi shuningdek, chaqaloqqa marhum buvisi, bobosi, ammasi, xolasi yoki boshqa qarindoshlar nomi berilgan bo'lsa, bunday bolaga uning nomini aytib murojaat qilishmagan. Chunki bunga amal qilmaslik nomning asl egasi bo'lmish marhumga nisbatan hurmatsizlik bo'ladi, deb hisoblashgan. Nomning asl egasi bo'lmish bobo yoki buvining amma yoki amakining noroziligi esa chaqaloqqa baxtsizlik keltirishi mumkin deb o'ylashgan. Mana shunday hollarda bolaga qo'shimcha ism – laqablar berilgan va unga o'sha laqabni aytib murojaat qilishgan. Ko'p holda bolaning laqabi uning asosiy ismiga aylanib ketgan. Ana shunga o'xshagan laqablar "Sudxo'rning o'limi" asarida ham qo'llangan,

asarda ishlatilgan laqablarni ko‘rar ekanmiz, ularning ko‘lami nihoyatda keng ekanligini bilamiz. Asarda uchraydigan laqablarning ko‘pchiligi asar qahramonlarining xarakteri, yurish-turishi, kasb-kori tufayli qo‘yilgan ism-familiyalar bilan atash ham ismlarni atashning keyinchalik vujudga kelgan ko‘rinishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Masalan, asarning bosh qahramoni – Ismatullo, lekin u asarning boshidan oxirigacha Qori Ishkamba laqabi bilan atalgan. Asarni o‘qish mobaynida bu laqab bejiz qo‘llanmaganiga amin bo‘lasiz. Muallif aytadi: *“Haqiqatan, qiziq bir nom, hayvonlarning oshqozonini “ishkamba” deydilar”.* Ijodkor “ishkamba” laqabini bergan bu odamning xarakter-xususiyatlari haqiqatda hayvonlarga xos, ba’zi o‘rinlarda uning qilayotgan ishiga qarab turib hayvonlar ham bunday “maxluq” odamning yonida holva deysan kishi.

Qissada Rahimi Qand degan obraz ham bor. Uning “Qand” laqabi kasbi bilan bog‘liq, ya’ni u qand, konfet kabi shirinliklar sotadi. Ayniy ham buni ta’kidlab: g’ *“Uning mana shu “kasbi” munosabati bilan Buxoro xalqi uning nomiga “qand” so‘zini qo‘shib Rahimi Qand der edilar”* [9-b].

Asarda laqab bilan nomlangan yana bir personaj – Amini Mushdir. *Hali gap shumi, dedi xushxon mullovachchalardan biri Amini Mush degani do‘q urib* [8-b.].

Laqab bilan nomlangan yana bir qahramon Nasrulloyi Deg. U qozonfurushlik bilan shugllanadi: - *Men qozonfurush Nasrulloboyga (odamlar uning nomini qisqartirib “Nasrulloyi Deg” der edilar) o‘n yil xizmat qildim* [10-b.].

Har bir ism xalq tarixini ifodalaydi, bu kabi nomlar “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida ham uchraydi, jumladan, har bir davrning o‘ziga xos ism qo‘yish odati bo‘lgan. Chunonchi, ibtidoiy va urug’chilik davrida qo‘yilgan ismlarda mardlik, qahramonlik kabi tushunchalar o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, islom dini kirib kelishi bilan dinga aloqador bo‘lgan ismlar bolaga qo‘yila boshlandi.

To‘laqonli badiiy obrazning yuzaga kelishida qahramonning portreti (tashqi qiyofasi), nutqi bilan bir qatorda uning ismi ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, jahon adabiyotining mashhur so‘z san’atkorlari o‘z asarlari qahramonlari ismiga jiddiy e`tibor berishgan, jumladan, A.P.Chexov shunday degan edi: *“Faqat asar qahramonlarining nutqlaridagina emas, balki ularning ismlari va faoliyatlarida ham chuqur soddalik va hayotiylik bo‘lishi kerak”.*

Darhaqiqat, qahramonlarning nomi asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirib, uning milliy ruhini, xalqchilligini kuchaytirishda, asardagi obrazlar va voqealarni tipiklashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Asarda uchraydigan mirza Abdullo, Nazar, Rahim kabi nomlarda shu kabi xususiyatlar o‘z aksini topgan. Lekin Sadriddin Ayniy bosh qahramonga Ismatullo deb ism tanlaydi. Ismatulla (arabcha)– Allohning begunoh, pokiza, yaxshi xislatlar sohibi bo‘lmish bandasi. Bu nom Muhammad (s.a.v.)ning sifati (laqabi) bo‘lgan. Ismning ma’no-mohiyatidan bu nomli

asar qahramoni shunday yaxshi inson ekanda deb o'ylarsiz. Lekin asardagi obraz bu nomga nomuvofiqligi sabab ijodkor uni o'ziga mos laqab bilan ataydi "Ishkamba". Asarni mutolaa qilish davomida shu narsa anglashilib turadiki, yozuvchining tanlagan ismi asar bosh qahramonining xarakter-xususiyatini to'laqonli ravishda aksi. Bunday nom tanlashga sabab nafaqat shu qahramonni insofga chaqirish, balki inson Qori Ishkamba kabi yomon, sudxo'r, xasis emas, balki Ismatulla ismidagi ma'nolarga ega yaxshi, pokiza, halol inson bo'lishi kerakligini uqtirgan.

Ism tanlashda ko'pincha tabarruk nomlar tanlanadi. Bolaga ismni ota-bobolar nomidan tanlash bilan o'tmish avlod, ajdodlarni eslash va hurmatlash va chaqaloqqa, o'tganlar ruhi, arvohi "yor bo'ladi" uni "qo'llab-quvvatlaydi" deb ishonish kabi xususiyatlar. Bundan tashqari, kishilar o'z bolasining ismi chaqaloqqa qo'yilgan marhum qarindoshga o'xshasin, o'shandek badavlat yoki botir bo'lsin, xushfe'l, xushmuomala, mehnatsevar, tirishqoq bo'lsin deb orzu qilishadi. Mana shunday maqsad va intilishlar zaminida o'tmish ota-bobolarning nomi kishilar tasavvurida aziz va xosiyatli bo'lib qolgan. Odamlar esa farzandlariga arabcha nomlarni qo'yishga e'tibor bera boshlaganlar, Sadriddin Ayniy ham shu udumdan uzoqlashmagan holda o'zi yaratgan qahramonlarga, asosan, arabcha bo'lgan nomlarni tanlaydi. Bularga misol qilib Safarali, Rahim, Nasrulloboy, Nazar va shu kabi nomlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Asarda ayrim qahramonlar ism bilan emas balki turli turdosh ot shakllari, ya'ni *do'stim, sartarosh, nonvoy, chinnifurush, sandiqfurush, do'ppifurush, attor* kabilar bilan atalgan. Muallif bu o'rinda qahramonlarni ularning kasb-hunari vositasida nomlash bilan kifoyalangan.

Ma'lumki, antroponimik indikatorlar kishi nomlari bilan birgalikda kelib, uni xarakterini yoritishda hamda konnonativ ma'no anglashda xizmat qiladi. "Sudxo'rning o'limi" asarida ham antroponimik indikatorlar qo'llangan nomlar mavjud. Bu kabi nomlar badiiy tasvirda muallifning personajga yoki personajning personajga bo'lgan munosabatini ko'rsatishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Ushbu indikatorlar orqali personajlarning salbiy yoki ijobiy qahramon ekanliklari yoki ularning qanday xarakter-xususiyatlari borligi haqida ma'lumot beradi. Xuddi shuningdek, antroponimlar tarkibidagi turli xil indikatorlar kitobxonga hissiy ta`sir qilish, unga estetik zavq berish xususiyatiga ham ega. Bu vositalar orqali kitobxon asar qahramonlarining jamiyatdagi o'rnini, ruhiy holatini, obraz mohiyatini yanada yorqinroq tushunadi. Asarda uchraydigan antroponimik indikatorlar sirasiga *-xon, -jon* kabi qo'shimchalarni hamda bir necha o'rinda qo'llangan *aka* (Rahim aka, Qori aka) so'zini ko'rsatish mumkin.

Xullas, "Sudxo'rning o'limi" asarida qo'llangan antroponimning ism, laqab kabi turlari personaj qioyfasini ochib berishga xizmat qilish bilan birga turli darajadagi uslubiy vazifani ham bajargan,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари.– Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. – 208 б.

2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. –Тошкент:ЎзМЭ, 1998. – Б. 604.

3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. –Б.26.

4. Kilichev B.E. Onomastika. O'quv qo'llanma. –Buxoro, Durdona, 2023. – 180 b.

5. Kilichev B.E., Bafoyeva N. A. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel "Bygone days" Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022.

6. Kilichev B.E A way of making words on proper nouns// International Journal on Integrated Education Volume 3, Issue II, Feb 2020. p. 96-98.

7. Kilichev B.E., Rahmarullayev Sh.N. O'zbek ertaklaridagi antroponimlarining lingvomadaniy asoslari//"Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari (filologiya fanlari doktori, professor Hamid G'ulomovich Ne'matov tavalludining 80 yilligiga bag`ishlanadi). –Buxoro, 2021. –B.145-148.

8. Kilichev B.E., Rahmarullayev Sh.N. Uzbek national folk tales and the nature of anthroponyms in live communication// Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021.

9. Qilichev B.E., Zaripov B.P., Kholmukhammedov B.F., Rahmatullayev Sh.N. Anthroponyms in Uzbek folk tales: problem with content and frequency// Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 1834-1840. 1835

10. Kilichev B.E., Zaripov B.P., Kholmukhammedov B.F. Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works // ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 5 May, 2021.